



## THE SOCIAL CONDITIONS OF PRISONERS OF WAR IN TURKESTAN: INTERNATIONAL HUMANITARIAN OVERSIGHT (1914–1918)

*Jakhongir Ilkhomovich Tojiboyev*

*Doctoral Researcher*

*Doctor of Philosophy (PhD) in History*

*Namangan State University*

*E-mail: [j.i.tojiboev@gmail.com](mailto:j.i.tojiboev@gmail.com)*

*Namangan, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

---

**Key words:** Hague Convention, Red Cross, Turkestan, prisoners of war, social condition, camp regime, neutral states, censorship, officers, ethnic hierarchy.

**Received:** 23.05.26

**Accepted:** 24.05.26

**Published:** 25.05.26

**Abstract:** The article analyzes the social condition of prisoners of war in Turkestan during the First World War, the system of international humanitarian monitoring and camp regulations. The study relies on the Hague Convention of 1907, the activities of the Red Cross, neutral-state mediation, local archival records and memoir sources. It examines the distribution of prisoners, their division into Slavic and non-Slavic groups, differences in the treatment of German and Austro-Hungarian prisoners, differences in the living conditions of officers and lower ranks, censorship of correspondence, permission to live outside camps and issues of covert surveillance. The article concludes that the camp system in Turkestan should be interpreted as the result of a complex interaction between international humanitarian norms, imperial security policy and local administrative practices.

---

## TURKISTONDA HARBIY ASIRLARNING IJTIMOYIY AHVOLI: XALQARO GUMANITAR NAZORAT (1914-1918)

*Jaxongir Ilxomovich Tojiboyev*

*Namangan davlat universiteti doktoranti*

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*[j.i.tojiboev@gmail.com](mailto:j.i.tojiboev@gmail.com)*

*Namangan, O'zbekiston*

---

**MAQOLA HAQIDA**

---

**Kalit soʻzlar:** Gaaga konvensiyasi, Qizil Xoch, Turkiston, harbiy asirlar, lager tartiboti, betaraf davlatlar, senzura, zobitlar, etnik iyerarxiya, xalqaro gumanitar huquq.

**Annotatsiya:** Maqolada Birinchi jahon urushi yillarida Turkiston oʻlkasidagi harbiy asirlarning ijtimoiy ahvoli, xalqaro gumanitar nazorat tizimi va lager tartiboti tahlil qilinadi. Tadqiqot 1907-yilgi Gaaga konvensiyasi, Qizil Xoch jamiyati faoliyati, betaraf davlatlar vositachiligi, mahalliy arxiv hujjatlari va memuar manbalariga asoslanadi. Maqolada asirlarning taqsimlanishi, slavyan va noslavyan guruhlariga ajratilishi, nemis va avstro-venger asirlariga munosabatdagi farqlar, zobitlar va oddiy askarlar yashash sharoitidagi tafovutlar, yozishmalar ustidan senzura, lagerdan tashqarida yashashga ruxsat va maxfiy kuzatuv masalalari yoritiladi. Xulosa sifatida Turkistondagi lager tizimi xalqaro gumanitar meʼyorlar, imperiya xavfsizlik siyosati va mahalliy maʼmuriy amaliyotlar oʻrtasidagi murakkab munosabatlar mahsuli sifatida talqin qilinadi.

---

**СОЦИАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ВОЕННОПЛЕННЫХ В ТУРКЕСТАНЕ:  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ГУМАНИТАРНЫЙ КОНТРОЛЬ (1914–1918 ГГ)**

**Жахонгир Илхомович Тожибоев**

*Докторант, доктор философии (PhD) по историческим наукам*

*Наманганский государственный университет*

*E-mail: [j.i.tojiboev@gmail.com](mailto:j.i.tojiboev@gmail.com)*

*Наманган, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** Гагская конвенция, Красный Крест, Туркестан, военнопленные, социальное положение, лагерный режим, нейтральные государства, цензура, офицеры, этническая иерархия.

**Аннотация:** В статье анализируются социальное положение военнопленных в Туркестанском крае в годы Первой мировой войны, система международного гуманитарного контроля и лагерный режим. Исследование основано на Гагской конвенции 1907 года, деятельности Красного Креста, посредничестве нейтральных государств, местных архивных документах и мемуарных источниках. В статье освещаются распределение пленных, их разделение на славянские и неславянские группы, различия в отношении к германским и австро-венгерским пленным, различия в условиях содержания офицеров и нижних чинов, цензура переписки, разрешение на проживание вне лагеря и вопросы негласного наблюдения. В

---

заклучение лагерная система Туркестана интерпретируется как результат сложного взаимодействия международных гуманитарных норм, имперской политики безопасности и местной административной практики.

---

**Kirish.** Birinchi jahon urushi davrida harbiy asirlik masalasi xalqaro huquq, imperiya xavfsizligi va gumanitar nazorat kesishgan murakkab jarayonga aylandi. Turkiston o'lkasiga yuborilgan nemis va avstro-venger harbiy asirlari rasmiy jihatdan Gaaga konvensiyasi talablariga muvofiq muhofaza qilinishi kerak edi. Konvensiya harbiy asirlarni davlat nazorati ostidagi shaxslar sifatida ko'rib, ularning hayoti, oziq-ovqati, tibbiy xizmati, yozishmalari va yordam qo'mitalari bilan aloqasini tartibga solgan [13].

Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasining markaziy hududlaridan uzoqda joylashganligi, iqlimi keskinligi, aholi tarkibi va harbiy-ma'muriy boshqaruvi bilan boshqa hududlardan farq qilgan. Shu sababli bu yerda harbiy asirlarni saqlash nafaqat maishiy va tibbiy, balki siyosiy-xavfsizlik masalasi sifatida ham ko'rilgan. Asirlar orasida yuqori unvonli generallar, zobitlar, oddiy askarlar, turli millat va konfessiya vakillari bor edi. Ularni bir xil tartibda saqlash amalda imkonsiz bo'lib, turli tabaqalashtirilgan lager tartibotlari shakllandi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mazkur mavzuda xalqaro huquqiy manbalar asosiy metodologik tayanchlardan biridir. 1907-yilgi Gaaga konvensiyasi harbiy asirlar masalasini tartibga soluvchi asosiy hujjat bo'lib, asirlarning huquqlari, yordam qo'mitalari faoliyati va betaraf davlatlar vakillari ishtirokini belgilagan [13]. Bu me'yorlar Turkistondagi amaliyot bilan solishtirilganda, huquqiy talab va real boshqaruv o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi muhim manbalar guruhi Qizil Xoch va betaraf davlatlar vakillari hisobotlaridir. Mathilde von Horn, Tormeyer, Ferrier, Shvetsiya, Daniya, AQSh va boshqa davlatlar missiyalari lagerlarni ko'zdan kechirgan. Ular oziq-ovqat, kiyim-kechak, tibbiy muassasalar, yozishmalar va gigiena holati haqida ma'lumotlar qoldirgan [5; 7; 15]. Biroq bunday hisobotlar qisqa muddatli kuzatuvlarga asoslangani, tekshiruv sanalari oldindan ma'lum bo'lgani va ma'muriyat ayrim muammolarni yashirishi mumkinligi sababli tanqidiy tahlil qilinishi lozim.

Uchinchi guruhga mahalliy arxiv hujjatlari, memuarlar va ilmiy tadqiqotlar kiradi. O'zbekiston Milliy arxivi, Toshkent viloyati davlat arxivi materiallari, F. Willfort, F.M. Beyli, E. Brändström kabi guvohlar yozuvlari, shuningdek Kotiukova, Rachamimov, Golender va Chirkindagi ma'lumotlar Turkiston lagerlarining kundalik tartiboti va siyosiy nazorat mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi [1; 2; 3; 4; 6; 8; 9; 12; 14; 16; 17; 20; 21]. Tadqiqotda

huquqiy-tarixiy tahlil, qiyosiy manbashunoslik, institutsional yondashuv va kundalik hayot tarixi metodlari qoʻllanildi.

**Natijalar.** Birinchi jahon urushi davrida Qizil Xoch jamiyati harbiy asirlar manfaatlarini himoya qiluvchi asosiy xalqaro tashkilotlardan biri boʻldi. Berlin qoʻmitasi Germaniyadagi rus asirlarining, Rossiya Qizil Xoch jamiyati esa nemis asirlarining huquqlari poymol etilmasligini kuzatishi kerak edi [2]. 1915-yil oktyabridan 1916-yil oktyabrigacha Turkistonga bir necha xalqaro missiyalar tashrif buyurdi. Ular orasida Germaniya va Avstriya Qizil Xoch hamshiralari, AQSh, Shvetsiya, Daniya va Xalqaro Qizil Xoch qoʻmitasi vakillari bor edi [5; 10; 15].

Delegatlar Turkistonga yetib kelish uchun avval Petrograd orqali ruxsat olgan, keyin uzoq temiryoʻl orqali Toshkentga kelgan. 1916-yilda Petrograddan Toshkentga yetib kelish bir haftagacha vaqt olgan [7]. Tormeyer va Ferrier barcha lagerlarni koʻra olmasligini anglab, kamroq tekshirilgan, iqlimi oʻziga xos va boshqaruv tizimi jihatidan muhim boʻlgan Turkistonni tanlagan. Biroq ular har bir lagerda juda qisqa vaqt, baʼzan bir kun atrofida boʻlishgan. Shu bois ularning hisobotlari qimmatli boʻlsa-da, mahbuslarning toʻliq tajribasini aks ettirmasligi mumkin [15].

Betaraf davlatlar vositachiligi Turkiston lagerlaridagi muammolarni xalqaro diplomatiya predmetiga aylantirdi. AQSh, Shvetsiya, Daniya, Shveysariya, Gollandiya va Ispaniya Rossiyadagi harbiy asirlar manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etdi [2]. Gaaga konvensiyasining 15-moddasi asirlar uchun maxsus yordam qoʻmitalari tuzishga ruxsat bergan, bunday qoʻmitalarda betaraf davlat elchixonasi vakillari qatnashishi talab qilingan [2; 13]. 1916-yil dekabrda Daniyaning Petrograddagi elchixonasi vakili kapitan A. Brun ham shu jarayonlarni tekshirgan [5; 11].

Turkiston lagerlarida zobitlar va oddiy askarlar sharoiti keskin farqlangan. Rasmiy maʼlumotlarga koʻra, asirlikka tushgan zobitlarga ayrim hollarda oilasi bilan yashash imkoniyati berilgan, ishga jalb qilinganda haq toʻlangan, sovuq fasllarda issiqroq kiyim bilan taʼminlangan [4]. Quyi tabaqadagi askarlarga kuniga 3 funt non berilgani qayd etiladi [1]. Bu miqdor Germaniya lagerlaridagi rus asirlariga berilgan non meʼyoridan ancha yuqori boʻlgani aytilsa-da, oziq-ovqat sifati va real taqsimot har doim ham rasmiy meʼyorga mos kelmagan [14].

Yuqori unvonli asirlar, ayniqsa generallar, Toshkentdagi xususiy kvartiralarda yoki “Regina” kabi mehmonxonalarda yashagan. General-leytenant fon Gauk, general-mayor Raft va general-leytenant Karl Vaysendorfer shunday sharoitga ega boʻlganlar [8; 14]. Kazalinsk va Perovskda ayrim zobitlarga oʻz pullari hisobiga uy sotib olish yoki qurishga ham ruxsat berilgan. Eng qimmat uy 500 rubl, eng arzoni esa 150 rubl atrofida boʻlgan [14]. Bunday imkoniyat oddiy askarlar uchun mavjud emas edi.

Lagerdan tashqarida yashashga ruxsat berilgan yuqori unvonli asirlar ham kuzatuv ostida bo'lgan. Turkiston rayon muhofaza bo'limi ularning harakatlarini nazorat qilgan. 1915-yil 7-aprelda "Yavnarskiy" taxallusli ayg'oqchi xodim general Gaukning "Regina" mehmonxonasidan polkovnik Belov bilan muntazam muloqot qilganini qayd etgan, biroq suhbat fransuz tilida bo'lgani sababli mazmunini aniqlay olmagan [3]. Bu epizod lager tartiboti faqat maishiy me'yorlardan iborat emas, balki razvedka va kontrazvedka nazorati bilan ham bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

1918-yil yozida Toshkent ijroiya qo'mitasi raisi Vsevolod Chernevskiy shahar lagerlarini ko'zdan kechirib, Avstriya-Vengriya fuqarolari joylashtirilgan lagerlarda Daniya elchixonasi tomonidan tayinlangan nemis zobiti komendant vazifasini bajarganini qayd etgan. U shuningdek, lager tarkibining 70 foizini vengerlar, slavyanlar esa juda oz qismni tashkil etganini bildirgan [6]. Bu ma'lumot inqilobdan keyingi davrda ham xalqaro vositachilik va mahalliy ma'muriy nazorat bir-biri bilan aralash holda davom etganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, bunday nisbatan erkinlik barcha asirlarga tegishli bo'lmagan. Kitob, jurnal va gazeta o'qish otryad rahbarining ruxsati bilan amalga oshirilgan; rus siyosiy gazetalari o'qish, xususan zobit asirlarga ruxsat etilgan [14]. Xalqaro me'yorlarga ko'ra, yakshanba dam olish kuni bo'lishi kerak edi, biroq favqulodda ishlar yoki nazorat ehtiyoji sabab har hafta dam olish kafolatlanmagan [1]. Demak, kundalik hayotda rasmiy huquqlar amaliy cheklovlar bilan to'qnash kelgan.

1917-yil boshida Avstriya-Vengriya asirlarining holati biroz yaxshilangani qayd etiladi, ammo Fevral inqilobidan keyin vaziyat yana yomonlashdi. 1917-yil oxiri va 1918-yil boshlarida sovet hokimiyati tomonidan harbiy asirlarning "ozod qilinishi" e'lon qilingan bo'lsa-da, F.M. Beyli buni lager eshiklarini ochish va oziq-ovqat ta'minotini to'xtatish sifatida talqin qiladi [8]. Bu holatda asirlar huquqiy jihatdan erkinlashgan bo'lishi mumkin, ammo ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan avvalgidan ham og'ir ahvolga tushgan.

**Muhokama.** Turkiston lager tizimining eng muhim xususiyati xalqaro gumanitar me'yorlar bilan imperiya xavfsizlik siyosati o'rtasidagi ziddiyatda ko'rinadi. Bir tomondan, Gaaga konvensiyasi asirlarga yordam qo'mitalari, yozishmalar va munosib sharoit kafolatlagan [13]. Ikkinchi tomondan, urush sharoitida harbiy asirlar potensial xavf manbai sifatida ko'rilgan, ularning yozishmalari, harakatlari va aloqalari nazorat qilingan [1; 3].

Xalqaro nazorat mexanizmlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, ularning natijalari cheklangan edi. Delegatlar qisqa muddatga kelgan, lager ma'muriyati tekshiruvlarga tayyorgarlik ko'rgan, ba'zi muammolar yashirilgan. Biroq aynan shu tashriflar va diplomatik bosim Turkiston masalasini xalqaro gumanitar kun tartibiga olib chiqqan. AQSh, Daniya,

Shvetsiya kabi davlatlarning vositachiligi Rossiya hukumatini kamida ayrim choralar ko'rishga majbur etgan [2; 5; 15].

Turkiston lagerlarida zobitlar va oddiy askarlar o'rtasidagi farq ham ijtimoiy tarix uchun muhim. Zobitlar ayrim hollarda mehmonxona, xususiy uy, sport maydonchalari, alohida oshxona va senzuralangan bo'lsa-da nisbatan barqaror yozishma imkoniyatiga ega bo'lgan [4; 14]. Oddiy askarlar esa zich baraklar, umumiy hojatxonalar, qattiq nazorat va oziq-ovqat muammolari bilan yuzma-yuz kelgan. Demak, "harbiy asir" kategoriyasi ichida ham ijtimoiy tabaqalanish mavjud edi.

**Xulosa.** Turkistondagi harbiy asirlar lagerlari Birinchi jahon urushi davridagi xalqaro gumanitar huquq, imperiya boshqaruvi va mahalliy ma'muriy amaliyotlarning murakkab kesishuvini ifodalaydi. Gaaga konvensiyasi va Qizil Xoch me'yorlari rasmiy huquqiy asos yaratgan bo'lsa-da, real hayotda asirlarning sharoiti hudud, millat, harbiy unvon, siyosiy xavf darajasi va mahalliy ma'muriyat imkoniyatlariga qarab farqlangan.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Turkistonda harbiy asirlik tizimi faqat lager ichidagi maishiy tartib emas, balki diplomatik vositachilik, senzura, maxfiy kuzatuv, etnik tasnif, xalqaro gumanitar bosim va mahalliy kundalik hayot bilan bog'liq murakkab tarixiy hodisa edi. 1917-yildan keyingi siyosiy beqarorlik esa asirlarning huquqiy maqomini yanada noaniq holga keltirdi. Shu sababli Turkistondagi harbiy asirlar masalasi Birinchi jahon urushi tarixi, Markaziy Osiyo ijtimoiy tarixi va xalqaro gumanitar huquq tarixini bog'lovchi muhim tadqiqot yo'nalishi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1] O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), I-16-fond, 1-ro'yxat, 1874-yig'ma jild, 7-varaq orqasi; 44-varaq.

[2] O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), I-81-fond, 1-ro'yxat, 225-yig'ma jild, 1-2, 16-varaqlar.

[3] O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), I-461-fond, 1-ro'yxat, 1648-yig'ma jild, 6-varaq; I-461-fond, 1-ro'yxat, 2468-yig'ma jild, 1-8-varaqlar.

[4] O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), I-737-fond, 1-ro'yxat, 90-yig'ma jild, 35, 42, 147-varaqlar.

[5] O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), I-738-fond, 32-ro'yxat, 28-yig'ma jild, 35, 38-varaqlar.

[6] Toshkent viloyati davlat arxivi, 10-fond, 1-ro'yxat, 47-yig'ma jild, 485-varaq va orqasi.

[7] LABW GLAK, FA 6643. Mathilde von Horn, Bericht über den Besuch der Kriegsgefangenenlager in Turkestan, n.d. – P.1.

[8] Бейли Ф.М. Миссия в Ташкент. – Москва: Языки славянской культуры, 2013. – С.42, 65–66.

[9] Brändström Elsa. Unter Kriegsgefangenen in Rußland und Sibirien 1914–1920. – Berlin, 1922. – S.27.

[10] Brandström Elsa. Unter Kriegsgefangenen in Rußland und Sibirien – 1914–1920. – Leipzig: Koehler & Amelang, 1927. – S.73.

[11] Brun A. Troublesome Times. – London, 1931. – P.6.

[12] Голендер Б.А. Немецкий след в Узбекистане XV–XX веков. – Ташкент: Navro‘z, 2019. – С.100.

[13] Hague convention (IV) respecting the Laws and Customs of War on Land and its annex: Regulations concerning the Laws and Customs of War on Land. – The Hague, 18 October 1907. – P.4.

[14] Котюкова Т.В. “Утомленные солнцем...”: особенности пребывания и содержания австро-венгерских и германских военнопленных в Туркестане в годы Первой мировой войны // O‘zbekiston tarixi. – 2018. – №4. – В.51–52.

[15] Котюкова Т.В. Туркестанский плен: немецкие и австро-венгерские военнопленные в русском Туркестане в годы Первой мировой войны // Россия и современный мир. – 2017. – № 3 (96). – С.53–60.

[16] Nachtigal R., Radauer L. Prisoners of War (Russian Empire) // International Encyclopedia of the First World War. – Last updated January 8, 2017.

[17] Rachamimov A. POWs and the Great War: Captivity on the Eastern Front. – Berg Publishers, 2002. – P.52.

[18] Россия в мировой войне в цифрах 1914–1918 гг. – Москва: ЦСУ СССР, 1925. – С.40–41.

[19] Шлейхер И.И. Пленные стран Четверного союза в Сибири: некоторые вопросы транспортировки и содержания в лагерях // Военно-исторические исследования в Поволжье. – Саратов: Научная книга, 2005. – Вып. 6. – С.78–90.

[20] Willfort F. Turkestanisches Tagebuch: Sechs Jahre in Russisch Zentral Asien. – Vienna and Leipzig: Wilhelm Braumüller, 1930. – S.69–81, 120.

[21] Чиркин С.В. Двадцать лет службы на востоке: записки царского дипломата. – Москва: Русский путь, 2006. – С.250.